

**PSIXOTROP MODDALARNING YOSHLAR HAYOTIGA SALBIY TA'SIRI**

*Raxmanberdiyev Muxtor Murotqulovich*  
*Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani*  
*27-sonli umumta'lim maktab psixologi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada psixotrop moddalarning yoshlar hayotiga salbiy ta'siri, bugungi yoshlar haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Jinoyatchilik, taqiqlangan moddalar, psixotrop moddalar, salbiy illatlar, xatti-harakatlar buzilishi.

Psixotrop moddalar — insonning markaziy asab tizimiga ogohlantiruvchi yoki susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadigan, psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalardir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 oktabrdagi 878-sonli qaroriga binoan Respublika xududida muomalasi cheklangan psixotrop moddalar ro'yxatiga (3-ro'yxat) 85 ta moddalar kiritilgan. Ma'lum bo'lgan psixotrop moddalarning asosiy qismi ko'plab ruhiy kasalliklar va xatti-harakatlarning buzilishi kabi kasalliklarni davolash uchun tibbiy maqsadlarda qo'llaniladi: bundan tashqari, ular ilmiy tadqiqotlarda ham foydalaniladi. O'zbekistonda keyingi ikki yilda yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik va huquqbuzarlik oldingi yillarga nisbatan kamaygan bo'lishiga qaramay aynan tartibsizlik, taqiqlangan psixotrop moddalarning yoshlar o'rtasida noqonuniy tarqatilishi hamda ta'lim muassasalari o'quvchilarining o'tkir tig'li sovuq qurollardan foydalanishi kabi salbiy illatlarning ko'payib borishi keng jamoatchilik vakillarini tashvishga solib qo'yimoqda. Yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ayniqsa, ular orasida turli psixotrop moddalarning noqonuniy tarqatilishi hamda o'tkir tig'li sovuq qurollardan noqonuniy foydalanish holatlarini kamaytirish, shuningdek, mazkur turdagi salbiy illatlardan, uning oqibatlarida keng jamoatchilik fikrini hamda yoshlar munosabatini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi "Yoshlar press-klubi"da "Lirika" va "tramadol" kabi psixotrop moddalarning yoshlar o'rtasida noqonuniy aylanishi: jamoatchilik va yoshlar fikri" mavzusida ochiq muloqot tashkil etildi. Psixotrop moddalarning bir nechta asosiy guruhlari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

Anksiolitiklar (kichik trankvilizatorlar) – patologik qo'rquv va vahimani bartaraf etish va uyquni tiklash uchun ishlatiladigan eng keng tarqalgan guruhlardan biri. Ba'zi trankvilizatorlar tutqanoqqa qarshi va vegetativ nerv sistemasini barqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Antidepressantlar (timoanaleptiklar) – chegara sharoitlarini, og‘riq sindromlarini, psixosomatik kasalliklarni, depressiyani va xavotirlik kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi.

Neyroleptiklar (antipsixotik vositalar) – gallyutsinatsiyalar, tajovuz kabi psixoz belgilarini yo‘qotishda davolash qobiliyatiga ega.

Psixostimulyatorlar – aqliy va jismoniy ish faoliyatini oshiradigan, tashqi ogohlantirishlarni idrok etish qobiliyatini yaxshilaydigan (ko‘rishni, eshitishni va boshqalarni, javoblarni tezlashtiradigan), kayfiyatni yaxshilaydigan, charchoqni yenguvchi, tetiklantiruvchi va uyquga bo‘lgan ehtiyojni vaqtincha kamaytirish xususiyatiga ega dorilar guruhi bo‘lib, ushbu guruhga kofein, nikotin, fenamin kiradi.

Gallyutsinogenlar – bu gallyutsinatsiyalar yoki ong va fikrlashda sub‘ektiv o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan keng toifadagi moddalar bo‘lib, ularga lizergin kislotasining dietilamidi, psilotsibin va boshqalar kiradi.

Birinchi uchta guruh psixofarmakoterapiyaning asosi bo‘lib, tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ruhiy kasalliklarni davolash uchun ishlatiladigan normotimik preparatlar, nootropiklar va etil spirti alohida guruhlarga bo‘linadi. Asab tizimiga ta‘sir qilishning asosiy mexanizmiga ko‘ra, psixotrop moddalar qo‘zg‘atuvchi, tormozlovchi va aralash ta‘sir etuvchi kabi guruhlarga bo‘linadi. Psixotrop moddalar tayyorlanish usuliga ko‘ra kelib chiqishi o‘simliklar bo‘lgan moddalar, sintetik va yarim sintetik psixotrop moddalarga bo‘linadi.

Shifokorning retseptisiz psixotrop moddalardan foydalanish noqonuniy hisoblanadi. Aslida psixotrop moddalar tibbiyotda shifokor tavsiyasiga ko‘ra, nevrologiya, tutqanoq, onkologiya va kuchli og‘riqqa qarshi vositalar sifatida ishlatiladi. Ushbu dorilar tarkibida psixotrop moddalar mavjud bo‘lib, ular mamlakatimiz qonunchiligiga ko‘ra, rasman psixotrop moddalar ro‘yxatiga kiritilgan. Mazkur preparatlarni jarrohlik operatsiyalarida og‘riqsizlantirish maqsadida me‘yor bilan qo‘llash mumkin. Ammo uzoq muddat qo‘llanilsa yoki notibbiy maqsadda foydalanilsa, o‘ziga nisbatan ruhiy va jismoniy tobelikni yuzaga keltiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga qaraganda, bugungi kunda dunyoda 210 milliondan ortiq giyohvandlar qayd etilgan. Har yili yoshlar o‘rtasida giyohvandlarning soni 15-20 foizga ko‘payib bormoqda, 200 mingdan ziyod kishi ushbu ajal to‘ridan chiqolmay hayotdan ko‘z yummoqda. O‘z navbatida, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Giyohvandlik – inson organizmining giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni muttasil ravishda oshib boruvchi miqdorini qabul qilishga moyillik shakllanishi bilan bog‘liq og‘ir kasallik. Giyohvandlik – kayf beruvchi giyohvandlik vositalari yoki su‘niy ravishda tayyorlangan psixotrop moddalarni iste‘mol qilish yoki in‘eksiya yo‘li bilan qon tomirlariga yuborishdir. Psixotrop moddalar va giyohvandlik vositalarini salbiy xususiyati shundaki, ularni bir marta tatib ko‘rgan shaxs unga moyil bo‘ladi, 2-3 marta

iste'mol qilish esa uni ushbu moddani iste'mol etmay turolmaydigan holatga duchor etadi. Psixotrop moddalarni uzluksiz qabul qilish odamda ruhiy va jismoniy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ruhiy o'zgarishlar: uyqusizlik, xotira pasayishi, bosh og'rig'i, asabiylashish, kayfiyatning buzilishi, jahldorlik, charchash, fikrning tarqoqligi va boshqa asab tizimidagi o'zgarishlar (o'zi bilan o'zi gaplashadi, alahsiraydi, o'qishga layoqatsiz bo'lib qoladi) kuzatiladi. Moddiy va ma'naviy qashshoqlikka yuz tutib, oxiri ruhiy xastalikka chalinadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bunday holatda u inson sog'lom bo'lmaydi. Xatto shu darajaga boradiki, ostona hatlab ko'chaga ham chiqa olmaydi. Berilayotgan miqdor og'riqlarini bosa olmagach, iste'mol miqdori ko'paytiriladi. Natijada nafas olishi qiyinlashib, yuragi ko'tara olmaganidan bezovta bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, so'nggi qismati o'lim bilan yakun topadi. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida an'anaviy giyohvandlik vositalaridan voz kechib, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni iste'mol qilish natijasida yoshlar tomonidan og'ir jinoyatlar sodir etilishini oldini olish, yoshlarni bunday moddalarga o'rgatadigan va bunday ajal urug'i savdosiga aralashtiradigan kimsalardan farzandlarimizni ehtiyot qilish barchamizning muhim vazifamiz hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016.-56 b
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b. 2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 19.08.1999 yildagi 813-I-son